

## KASBGA YO‘NALTIRILGAN XORIJIY TIL O‘QITISHDA ESP (ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES) MODELINING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY QO‘LLANILISHI

**Raximova Dilnoza Botir qizi**

*Toshkent davlat texnika universiteti o‘qituvchisi*

+998 97 1311660

[dilnozim@gmail.com](mailto:dilnozim@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada nofilologik oliy ta’lim muassasalari talabalariga xorijiy tilni o‘qitishda English for Specific Purposes (ESP – Maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili) modelining nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilish mexanizmlari tahlil etilgan. ESP ning uchta asosiy nazariy ustuni – ehtiyoj tahlili (needs analysis), janr tahlili (genre analysis) va autentiklik tamoyili batafsil yoritilgan. Amaliy qo‘llanish doirasida to‘rt bosqichli kurs dizayni modeli (ehtiyot tahlili, dastur ishlab chiqish, materiallarni moslashtirish va baholash) taklif etilgan. Muhandislik, tibbiyot va IT yo‘nalishlari misolida ESP kurslarining samaradorligi asoslangan. Maqolada, shuningdek, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ESP modelini joriy etishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalari, jumladan, o‘qituvchilarning ikki tomonlama malakasini oshirish va fan-til hamkorligidagi darslar tashkil etish masalalari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** ESP, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, ehtiyoj tahlili, janr tahlili, autentiklik, nofilologik ta’lim, kasbiy kompetensiya, kurs dizayni.

**Kirish.** Oliy ta’lim tizimida xorijiy tilni o‘qitishning asosiy maqsadi talabani tanlagan mutaxassisligi doirasida samarali kommunikatsiya qila oladigan, xalqaro professional hamjamiyatga integratsiyalasha oladigan mutaxassis sifatida shakllantirishdan iborat. An’anaviy umumiy ingliz tili (General English) kurslari bu ehtiyojni qondira olmasligi bois, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab English for Specific Purposes (ESP – Maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili) yondashuvi alohida paradigma sifatida shakllandi. Hutchinson va Waters (1987) ta’kidlaganidek, ESP – bu “ehtiyot tahlili” (needs analysis) tamoyiliga asoslangan, talabning aniq kasbiy yoki akademik maqsadlariga xizmat qiluvchi til o‘qitish yondashuvidir<sup>26</sup>. Ushbu maqolaning maqsadi nofilologik OTM talabalari kontekstida ESP modelining nazariy asoslarini ochib berish va uning amaliy qo‘llanilish mexanizmlarini yoritishdan iborat.

**ESP ning nazariy asoslari.** ESP nazariyasi uchta asosiy ustunga tayanadi: ehtiyoj tahlili, janr tahlili va autentiklik tamoyili. Ehtiyoj tahlili – ESP metodologiyasining bosh mezon bo‘lib, u talabning maqsadli kasbiy vaziyatda qanday til ko‘nikmalariga

<sup>26</sup> Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). “English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach”. Cambridge: Cambridge University Press, pp. 53–59.



ega bo‘lishi kerakligini aniqlaydi<sup>27</sup>. Mazkur tahlil ikki darajada olib boriladi: maqsadli ehtiyojlar (target needs) – talaba kelajakda nima qila olishi kerak, va o‘quv ehtiyojlari (learning needs) – bu maqsadga erishish uchun qanday o‘quv strategiyalari zarur<sup>28</sup>. Janr tahlili esa ma’lum bir kasbiy hamjamiyatga xos matn turlarining strukturaviy, leksik-grammatik hamda ritorik xususiyatlarini o‘rganadi<sup>29</sup>. Masalan, tibbiyot yo‘nalishi talabasi uchun retseptlar, kasallik tarixi va klinik maqolalar, muhandislik talabasi uchun texnik spetsifikatsiyalar va ko‘rsatmalar asosiy janr birliklari hisoblanadi. Autentiklik tamoyili esa o‘quv jarayonida sun’iy materiallardan voz kechib, real professional kontekstdan olingan nutqiy birliklardan foydalanishni taqozo etadi<sup>30</sup>.

**ESP ning amaliy qo‘llanilishi.** Amaliyotda ESP kurslari odatda quyidagi bosqichli model asosida tashkil etiladi:

1) Ehtiyoj tahlili o‘tkazish – soha mutaxassislari, ish beruvchilar va talabalarining o‘zlari bilan so‘rovnoma, intervyu yoki kuzatuv o‘tkazish orqali til ehtiyojlari aniqlanadi<sup>31</sup>.

2) Kurs dasturini ishlab chiqish – ehtiyoj tahlili natijalariga ko‘ra, asosiy til ko‘nikmalari (o‘qish, yozish, tinglash, gapirish) kasbiy kontekstga mos tarzda loyihalashtiriladi. Tibbiyot talabalari uchun bemor bilan muloqot stsenariylari, IT yo‘nalishi uchun dasturiy ta’minot hujjatlari bilan ishlash kabi modullar yaratiladi<sup>32</sup>.

3) Materiallar tanlash va moslashtirish – autentik professional materiallar (ilmiy maqolalar, hisobotlar, shartnomalar, prezentatsiyalar kabilar) didaktik maqsadlarga moslashtiriladi.

4) Baholash tizimini ishlab chiqish – test va imtihonlar talabaning real kasbiy vaziyatlardagi til kompetensiyasini o‘lchashga qaratiladi.

O‘zbekiston kontekstida ESP modelini joriy etish bo‘yicha olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarining kasbiy terminologiyani o‘zlashtirish darajasi va mutaxassislik fanlariga oid xalqaro adabiyotlar bilan ishlash ko‘nikmalari an’anaviy yondashuvga nisbatan sezilarli darajada oshadi<sup>33</sup>. Biroq ESP kurslarining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchining nafaqat til, balki talabaning mutaxassislik sohasi bo‘yicha bazaviy bilimlarga egaligiga ham bog‘liq. Shu sababli, til va fan o‘qituvchilari

<sup>27</sup> Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). “English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach”. Cambridge: Cambridge University Press, pp. 53–59.

<sup>28</sup> Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). “Developments in English for Specific Purposes”. Cambridge: CUP, pp. 122–125.

<sup>29</sup> Swales, J. M. (1990). “Genre Analysis: English in Academic and Research Settings”. Cambridge: CUP, pp. 45–58.

<sup>30</sup> Basturkmen, H. (2010). “Developing Courses in English for Specific Purposes”. London: Palgrave Macmillan, pp. 34–36.

<sup>31</sup> Long, M. H. (2005). “Second Language Needs Analysis”. Cambridge: CUP, pp. 19–25.

<sup>32</sup> Flowerdew, L. (2013). Needs Analysis and Curriculum Development in ESP. In B. Paltridge & S. Starfield (Eds.), \*The Handbook of English for Specific Purposes\* (pp. 325–346). Boston: Wiley-Blackwell.

<sup>33</sup> Mamatqulova, B. (2020). Nofilologik yo‘nalish talabalariga ingliz tilini kasbga yo‘naltirib o‘qitishda kommunikativ yondashuv. “O‘ZMU Xabarlari”, 1(3), 145–149.



o‘rtasidagi hamkorlik (team-teaching) ESP samaradorligini oshiruvchi optimal strategiya sifatida tavsiya etiladi<sup>34</sup>.

**Xulosa.** ESP modeli nofilologik OTM talabalariga xorijiy tilni kasbiy kontekstda o‘rgatishning eng maqsadga muvofiq yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Uning nazariy asoslarini ehtiyoj tahlili, janr tahlili va autentiklik tamoyili tashkil etadi, amaliy jihatdan esa bu tamoyillar to‘rt bosqichli kurs dizayni orqali ro‘yobga chiqariladi. ESP ning O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida keng joriy etilishi uchun sohaga moslashtirilgan o‘quv resurslarini yaratish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va fan-til integratsiyasining institutsional mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish talab etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Basturkmen, H. (2010). *Developing Courses in English for Specific Purposes*. London: Palgrave Macmillan. – 157 b.
2. Belcher, D. D. (2006). *English for Specific Purposes: Teaching to Perceived Needs and Imagined Futures in Worlds of Work, Study, and Everyday Life*. *TESOL Quarterly*, 40(1), 133–156.
3. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach*. Cambridge: Cambridge University Press. – 301 b.
4. Flowerdew, L. (2013). *Needs Analysis and Curriculum Development in ESP*. In B. Paltridge & S. Starfield (Eds.), *The Handbook of English for Specific Purposes* (pp. 325–346). Boston: Wiley-Blackwell.
5. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach*. Cambridge: Cambridge University Press. – 183 b.
6. Long, M. H. (Ed.). (2005). *Second Language Needs Analysis*. Cambridge: Cambridge University Press. – 374 b.
7. Mamatqulova, B. (2020). *Nofilologik yo‘nalish talabalariga ingliz tilini kasbga yo‘naltirib o‘qitishda kommunikativ yondashuv*. *O‘zMU Xabarlari*, 1(3), 145–149.
8. Swales, J. M. (1990). *Genre Analysis: English in Academic and Research Settings*. Cambridge: Cambridge University Press. – 260 b.

---

<sup>34</sup> Belcher, D. D. (2006). *English for Specific Purposes: Teaching to Perceived Needs and Imagined Futures in Worlds of Work, Study, and Everyday Life*. “*TESOL Quarterly*”, 40(1), 133–156.